MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni bajarish tartibi

Odatda mustaqil ishni bajarishning quyidagi shakllari mavjud:

1. Doklad yoki xabarlar tayyorlash asosida;
2. Amaliy tajribalar o‘tkazish asosida *(fizika yoki kimyo fanlari bo‘yicha);*
3. testlarni bajarish tartibida;
4. vazifa va mashqlarni bajarish asosida;
5. keys tahlili asosida;
6. esse yoki insholar yozish asosida;
7. o‘quv adabiyotlar ustida ishlash asosida;
8. manbalarlardan ma’lumotlarni yozib olish asosida;
9. tarjima asosida (chet tillarini o‘qitishda);
10. loyihalarni tayyorlash asosida (tarix, ijtimoiy fanlar va boshqalarda);



Izoh:
Mustaqil ish yuzasidan savollar tug‘ilsa, u holda amaliyotchi o‘qituvchi yoki boshqalarga murojaat qilishingiz mumkin. Mustaqil ish – bu mustaqil bajariladigan ishdir va uni qanday bajarishni o‘zingiz hal qilasiz *(albatta, mustaqil ishni bajarishga qo‘yilgan talablar asosida).*

Ushbu vazifalarni bajarishda ularning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qarating.

Doklad qilish

Dokladning muvaffaqiyatli chiqishi bu mavzuning aktualligi va qiziqarli ekanligiga bog‘liq. Shuning uchun nafaqat darsliklardan, balki ixtisoslashgan nashrlardan, shuningdek, zamonaviy yangi manbalardan foydalanganligiga bog‘liq.

Amaliy tajriba

Mustaqil ish auditoriyada amalga oshiriladigan bo‘lsa, u holda fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko‘pincha tajriba ishlarining borishi va olingan natijalarni tasvirlab berish talab etiladi. Tajriba davomida nima sodir bo‘lgagini tushunish uchun nazariy materiallarni yaxshi bilish talab etiladi.

Testlar

Testlarni echishda savol va javob matnlarini diqqat bilan o‘rganish lozim. Ushbu turdagi mustaqil ishga tayyorgarlik ko‘rishda nazariy ma’lumotlarni yaxshi bilish, atamalarga, asosiy sanalarga va mashhur olimlarga tegishli ma’lumotlarga e’tibor qaratish lozim.

Vazifalar va mashqlar

Mustaqil ishni bajarishning eng keng tarqalgan shakllaridan biri, bu ham auditoriyada va ham uyda bajarishga qaratilgan hamda turli fanlar *(rus tilidan boshlab matematikagacha)* yuzasidan beriluvchi vazifalar va mashqlarni bajarish hisoblanadi. Albatta ushbu mashqlarni bajarish uchun nazariy tushunchalarni tushunish va o‘tilgan mavzularni qaytarish *(yoki eslab)* talab qilinadi.

Keyslar

Ba’zi mavzularni tushunish uchun amaliy vaziyatni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu turdagi mustaqil ishlarni bajarish uchun faqat nazariy bilimlarni bo‘lishligini o‘zi etarli emas: analitik fikrlash va ijtimoiy-siyosiy voqelikni tushunish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy ish

Esse yoki insho yozish shunchaki ijodkorlikni talab qilmaydi: Esse yoki insho asosli dalillar asosida yoziladi. Bu yerda, asosli dalil sifatida adabiyotlardan olingan hamda tarixiy misollar, shuningdek, hayotiy faktlar, mashhur olimlarning iqtiboslari va hokazolarni keltirish mumkin.

O‘quv adabiyotlar bilan ishlash

Geografiya yoki biologiya mashg‘ulotlarida talabalarga ko‘p hollarda o‘quv adabiyotlar yordamida mustaqil ishlar topshiriladi. Pedagog tomonidan belgilangan materiallar mustaqil yozlashtiriladi va tekshirishlar (test yoki boshqa formalarda) asosida yakuniy xulosaga kelinadi.

Manbalarlardan yozib olingan ma’lumotlar

Ushbu turdagi mustaqil ish talabalarni tavsiya etilgan manbalar bilan tanishish, undagi ma’lumotlarni tahlil qilish va asosiy (kerakli) ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Ma’lumotlarni tuzishda ixcham likka, shuningdek, jadval, grafik, sxema va diagrammalardan foydalanishga e’tibor

qarating. Chunki ushbu ob’ektlar ma’lumotlarni tushunarli va ixcham tashkil etishga yordam beradi.

Tinglash va tarjima qilish.

Chet (o‘zga) tillarni o‘rganishda ushbu tillarni axborot tashuvchilarda keltirilgan ma’lumotlarini tinglash orqali tushinib borishga e’tibor qaratish juda muhimdir. Talabalar eshitgan ma’lumotlarni qayta aytib berishlari yoki uning mazmuni bo‘yicha topshiriqlarni bajarishlari talab etiladi.

Loyiha ishi

Ushbu turdagi mustaqil ish odatda kichik guruhlarda amalga oshiriladi, har bir talaba o‘zining loyiha ishi qismiga javobgar bo‘ladi. Loyiha ishini muvaffaqiyatli yakunlash uchun dolzarb mavzuni tanlash va mustaqil ish natijalarining taqdimotini sifatli tayyorlash muhimdir.

Mustaqil ish qanday tayyorlanadi ?

Mustaqil ishlarni loyihalashning o‘ziga xos nozik jihatlari mavjud. Odatda mustaqil ish qo‘lda emas, balki office dasturlari (Ms.Word, Ms.PowerPoint) yordamida amalga oshiriladi va yakuniy tahlillardan so‘ng chop etiladi. Mustaqil ish tashkil etuvchilari quyidagilardan iborat:

titul varag‘i (1-sahifa);

mundarija (agar mustaqil ish bir nechta bo‘limlardan iborat bo‘lsa);

kirish;

asosiy qism;

yakuniy xulosa.

Mustaqil ishga qo‘yiladigan talablar:

shrift Times New Roman;

shrift o‘lchami: –14;

kenglik bo‘yicha tekislangan (ikki tomonlama);

satrlar orasidagi masofa, pedagog talabi asosida 1 yoki 1,5;

paragraf chegarasi (qizil satr) – 1,25 sm;

chetlari – har tomondan 2 sm.

Ushbu talablar odatda uslubiy tavsiyalarda ham keltiriladi.